



## ZAMONAVIY MASSIVLARDA AHOLIGA KO'RSATILADIGAN XIZMATLAR VA ULARNI TAVSIFLASH

**Ismailov Najmiddin Ilxamovich**

*Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti*

ORCID: 0009-0009-6482-7684

[najmiddin2004@rambler.ru](mailto:najmiddin2004@rambler.ru)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada zamonaviy massivlarda aholi farovonligi va turmush darajasini oshirishda xizmatlarning o'rnini, o'ziga xosligi, xizmatlar tarkibiga kiruvchi faoliyat turlari kabilari yoritilgan. Xizmatlar faoliyatining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy massiv, xizmat ko'rsatish, samarali boshqarish, aholi turmush darajasi, turmush sifati, aholining bandlik darajasi, aholi daromadlari.

## УСЛУГИ, ОКАЗЫВАЕМЫЕ НАСЕЛЕНИЮ В СОВРЕМЕННЫХ МАССИВАХ И ИХ ОПИСАНИЕ

**Исмаилов Нажмиддин Илхамович**

*Самаркандский государственный*

*архитектурно-строительный университет*

**Аннотация.** В данной статье описывается роль услуг в повышении благосостояния и уровня жизни населения современных массивов, их уникальность, а также виды деятельности, входящие в услуги. Проанализирована доля сферы услуг по видам экономической деятельности.

**Ключевые слова:** современный массив, предоставление услуг, эффективное управление, уровень жизни населения, качество жизни, уровень занятости населения, доходы населения.

## SERVICES PROVIDED TO THE POPULATION IN MODERN AREAS AND THEIR DESCRIPTION

**Ismailov Najmiddin Ilxamovich**

*Samarkand State University of*

*Architecture and Construction*

**Abstract.** This article describes the role of services in improving the well-being and standard of living of the population of modern areas, their uniqueness, as well as the types of activities included in services. The share of the service sector by types of economic activity is analyzed.

**Keywords:** modern areas, provision of services, effective management, standard of living of the population, quality of life, level of employment of the population, income of the population.

### **Kirish.**

So'nggi yillarda yurtimizda aholi turmush darajasini oshirish maqsadida Yangi O'zbekistonga xos bo'lgan bir qator zamonaviy bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizning barcha hududlarida xalqaro darajadagi bino va inshootlar majmualari bilan bir qatorda zamonaviy massivlar qad rostlayapti. Aholi uchun qurilayotgan uy-joylar soni yildan-yilga ortib, ularni arzon narxlarda sotib olish uchun fuqarolarimizga qator qulayliklar yaratib berilmoqda. Aholining uy-joy sharoitini yaxshilash, hududlarda zamonaviy shaharsozlik talablari asosida ko'p qavatli uy-joylar, ijtimoiy soha va infratuzilma obyektlari hamda muhandislik kommunikatsiya tarmoqlari qurilishini jadallashtirish, er resurlaridan oqilona foydalanish va aholi punktlarining urbanizatsiya jarayonlarini rivojlantirish maqsadida 2022-yildan boshlab hududlarda "Yangi O'zbekiston" massivlari barpo etila boshlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-dekabrda "Yangi O'zbekiston" massivlarini qurish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-32-sonli Farmoni (2021) qabil qilindi. Farmonga muvofiq 29 ta massiv tanlab olingan bo'lib, 619 ta uy-joy (21 ming 321 xonadon), 18 ta maktab, 24 ta bog'cha, 15 ta tibbiyot muassasasi qurish rejalashtirilgan buning uchun 1015 gektar er maydoni ajratilgan. Ushbu er maydonida zamonaviy ko'p qavatli uylar, ijtimoiy soha, bozor infratuzilmasi va muhandislik ob'ektlari joylashtirish bo'yicha bosh reja loyihalari ishlab chiqilgan. Bundan tashqari har bir hududning tabiiy iqlimidan kelib chiqib massivlarda daraxtlar ekish va ko'kalamlashtirish ishlariga ham alohida e'tibor qaratilgan. Shubxasiz "Yangi O'zbekiston" massivlari hozirgi davr talabiga to'liq javob bera oladigan zamonaviy massivlarga aylanadi.

Mana shu zamonaviy massivlarda aholiga sifatli va qulay bo'lgan xizmatlarni ko'rsatish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bu esa zamonaviy massivlarda xizmat ko'rsatish sohasini tashkiliy-iqtisodiy jihatdan to'g'ri shakllantirish muhimligini anglatadi. Chunki, ushbu sohaning rivojlanishi tashkiliy jihatdan optimal va xizmatlar bozori konyunkturasiga nisbatan egiluvchan bo'lsa, xizmat ko'rsatish sifati va samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi. Xizmat ko'rsatish sohasining to'g'ri yo'lga qo'yish milliy iqtisodiyot miqyosida bir qator ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni bartaraf etishga sabab bo'ladi.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Zamonaviy massivlarda aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar bugungi kunda xukumat darajasiga ko'tarilib ulgurdi. Zamonaviy massivlarda xizmatlar sohasining ortib borishi aholi turmush darajasining yaxshilanishiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir etadi. Bunday xizmatlar barchasi aholi farovonligi uchun xizmat qiladi. Shundan kelib chiqqan holda zamonaviy massivlarda aholining qulay va zamonaviy yashash sharoitlarini yaratish uchun Abdurahmonov (2009) "turmush darajasi" tushunchasining mazmunini iste'mol sohasi bilan cheklaydigan mualliflar nuqtai-nazarini to'g'ri deb hisoblaydi. Uning fikricha, turmush darajasi deganda, aholining zarur moddiy va nomoddiy ne'matlar va xizmatlar bilan ta'minlanish darajasi, ularni iste'mol qilish darajasi tushuniladi.

Muxitdinov (2009) aholi turmush darajasini oshirish hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bog'liqligini o'rganadi va aholi turmush darajasini oshirishga xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning ta'sirini yoritib beradi.

Mening fikrimizcha, aholi turmush darajasi juda keng tushuncha. U bevosita birqancha sohalar bilan chambarchas bog'langan. Shunday sohalaridan biri xizmat ko'rsatish hisoblanadi. Bundan tashqari aholi daromadlari, bandligi va turmush darajasiga bog'liqliklarni sanab o'tishimiz mumkin. Zamonaviy turar joy massivlarda aholi istiqomad qiladi. Ularga sifatli va samarali xizmat ko'rsatishni tashkil qilishni muhim deb hisoblayman.

Aholining turmush darajasi va daromadlari ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarining samaradorligi, ilmiy-texnik taraqqiyot darajasi, aholining madaniy-ma'rifiy saviyasi, milliy xususiyatlari, siyosiy hokimiyat va boshqalar bilan bog'liq. Bu boradagi izlanishlar aholi turmush darajasini oshirish mamlakatning har bir aholisiga to'g'ri keladigan

yalpi ichki mahsulot va boshqa ko'rsatkichlar orqali baholab borilgan. Bu borada XX asrning 80 yillaridan boshlab aholi turmush darajasi oshishini baholashda inson potentsiali taraqqiyoti indeksi hisoblanib boshlangan, u nafaqat jamiyatda moddiy boyliklarning taqsimlanishini, balki insonlarni har tomonlama mukammal rivojlanishi imkoniyatlarini o'z ichiga olgan. Inson potentsiali taraqqiyoti indeksi uch imkoniyatni – hayot davri va sog'lomlik, ta'lim olish va bilimni mustahkamlash hamda aholining turmush kechirishini ta'minlovchi etarli daromadlar darajasini o'rganadi.

### Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida iqtisodiy taxlil, statistik guruhlash, tizimli va qiyosiy tahlil va boshqa usullar qo'llanilgan

### Tahlil va natijalarmuhokomasi.

Zamonaviy massivlarda aholi munosib hayot kechirishi uchun qulay sharoit yaratilishi muhim hisoblanadi. Aholi munosib hayot kechirishi ijtimoiy-iqtisodiy tushuncha bo'lib, u insonlar hayotining xizmat ko'rsatish bilan ham bog'liq munosabatlarini o'z ichiga oladi. Aholining turmush darajasini o'rganishga turli yondashuvlar bo'lishi mumkin va iqtisodiyotning alohida tarmoqlarini rivojlantirish orqali aholi turmush darajasini oshirishni o'rganish zarur deb hisoblayman. Shu nuqtai-nazardan zamonaviy massivlarda xizmat ko'rsatish faoliyatini rivojlantirish aholi turmush darajasini oshirishning muhim omili sifatida qarayman.

Xizmatlar ko'rsatish sohasini rivojlantirish maqsadida amalga oshirilayotgan dasturlar va chora - tadbirlar natijasida mamlakatimizda sohaning YaIM hamda YAHMdagi ulushi oxirgi yillarda o'sish darajada bo'lmoqada.

### 1- jadval


2021-2024 (yan-sent) yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
YAHM ishlab chiqarish hajmi va uning ulishi

№	Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM	2021 yil		2022 yil		2023 yil		2024 yil yan.-sent.	
		Summa, mlrd	Jami YaHMdagi ulishi (%)	Summa, mlrd	Jami YaHMdagi ulishi (%)	Summa, mlrd	Jami YaHMdagi ulishi (%)	Summa, mlrd	Jami YaHMdagi ulishi (%)
1.	Mahsulotlarga sof soliqlar	1 109,2	2,1%	1 574,1	2,5%	1 389,2	1,9%	1 121,2	1,5%
2.	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	23 622,4	43,9%	24 652,2	39,5%	28 786,2	38,8%	23 662,6	32,6%
3.	Sanoat	7 789,8	14,5%	9 731,6	15,6%	11 184,8	15,1%	11 014,2	15,2%
4.	Qurilish	3 137,2	5,8%	3 742,9	6,0%	4 235,0	5,7%	4 036,6	5,6%
5.	Xizmatlar	18 091,3	33,7%	22 739,5	36,4%	28 520,1	38,5%	32 707,4	45,1%
	Jami	53 749,9	100,0%	62 440,3	100,0%	74 115,3	100,0%	72 542,0	100,0%

**Manba:** Samarqand viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Samarqand viloyati misolida tahlil qiladigan bo'lsak, oxirgi yillar hududda YaHM ushish ko'rsatkichlarini qayd etmoqda. Yuqorida keltirilgan 1-jadval ma'lumotlariga nazar soladigan bo'lsak, 2021 yilda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 23622.4 mlrd. so'mni, sanoat 7789.8 mlrd. so'mni, qurilish 3137.2 mlrd. so'mni va xizmatlar 18091.3 mlrd. so'mni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin. 2022 yilda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 24652.2 mlrd. so'mni, sanoat 9731.6 mlrd. so'mni, qurilish 3742.9 mlrd. so'mni va xizmatlar 22739.5 mlrd. so'mni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin. 2023 yilda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 28786.2 mlrd. so'mni, sanoat 11184.8 mlrd. so'mni, qurilish 4235.0 mlrd. so'mni va xizmatlar 28520.1 mlrd. so'mni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin. 2024 (yanvar – sentyabr oylari) yilda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 23622.6 mlrd. so'mni, sanoat 11014.2 mlrd. so'mni, qurilish 4036.6 mlrd. so'mni va xizmatlar esa 32707.4 mlrd. so'mni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin. YaHM 2021 yilga nisbatan 2023 yil 137.9% ga o'sganligini ko'rishimiz mumkin. Shundan xizmatlar hajmi 157.6 %ga, ya'ni 10428.8 mlrd. so'mga ko'p degani.

Bunday o'sish ko'rsatkichlari hukumat tomonidan olib borilayotgan tadbirlar natijasi deb hisoblayman. Aholining o'sishi va xizmatlarga bo'lgan talabi yildan yilga ortib bormoqda. Mana shu tadbirlarda belgilangan barcha chora-tadbirlarni amalda bajarilishi, aholi daromadlarining oshishi va turmush darajasining ko'tarilishi, qishloqlarda ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish, zamonaviy infratuzilma shaxobchalarini tashkil etish, yangi ish o'rinlarini barpo etish, xizmat ko'rsatish va servis sohasini, ta'lim tizimini, aholining tibbiy madaniyatini yanada rivojlantirishga yo'l ochib bermoqda. Zamonaviy massivlarda aholi munosib hayot kechirishiga imkon bermoqda. Shu bilan bir qatorda aholining turmush darajasini oshirishga xizmat qilmoqda. Bunday rivojlanish zamonaviy massivlarimizda infratuzilmani yanada rivojlanishiga imkon beradi. Aholi turar joy massivlari uchun eng zarur bo'lgan transport kommunikatsiyalarini yaxshilash, toza ichimlik suvi bilan ta'minlash, tibbiy xizmatlar ko'rsatish, ta'lim-tarbiya xizmatlari telekommunikatsiya tarmoqlarini yaxshilashga imkon beradi.



### 1-rasm. Samarqand viloyat YAHMdagi xizmatlar hajmi va uning ulishi

**Manba:** Samarqand viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Samarqand viloyatida 2021-2024 (yanvar – sentyabr oylari) yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM dagi xizmatlar hajmini va ulushini tahlil qildim. YaHM tarkibini qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, sanoat, qurilish va xizmatlar tashkil etadi. 1-rasmga nazar soladigan bo'lsak hamma iqtisodiy faoliyat turlarida o'sishni kuzatishimiz mumkin. Bu

mamlakatimizda olib borilayotgan chora-tadbirlarning mevasi deb hisoblayman. Bu ko'rsatkichlarni chuqur tahlil qiladigan bo'lsak, Xizmatlar faoliyat turi boshqa faoliyat turlariga nisbatan yuqori ko'p o'sganligini ko'rishimiz mumkin. Bu o'sish YaHMdagi xizmat faoliyat turning boshqa faoliyat turlaridagi ulushining ko'payishiga olib kelmoqda. 2021 yilda YaHMdagi xizmatlar faoliyatining ulushi 33.7%ni tashkil qilgan bo'lsa, 2022 yil 36.4%, 2023 yil 38.5% va 2024 (yanvar – sentyabr) yilda 45.1%ni tashkil etgan. 2021 yilga nisbatan 2024 (yanvar – sentyabr) yilda 11.4% ga ko'p ulushga ega bo'lgan. misolida tahlil qiladigan bo'lsak, oxirgi yillar hududda YaHM usish ko'rsatkichlarini qayd etmoqda. Bu xizmatlar tarkibiga aloqa va axborotlashtirish xizmatlari, moliyaviy xizmatlar, transport xizmatlari, yashash va ovqatlanish xizmatlari, savdo xizmatlari, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar, ta'lim sohasidagi xizmatlar, savdo xizmatlari, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar, ta'lim sohasidagi xizmatlar, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar, ijara xizmatlari, kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar, shaxsiy xizmatlar va boshqa xizmatlarni kiritishimiz mumkin. Xizmat turlarining ko'payishi, rivojlanishi va takomillashishi natijasida YaHM tarkibidagi xizmatlar faoliyatining ulushi ortishiga olib kelmoqda. Mana shu xizmatlarni aholini yanada qulay sharoit asosida foydalanishlari maqsadida hukumatimiz tomonidan yangidan yangi tadbirlar amalga oshirilmoqda. Buning amaldagi natijasi sifatida "Yangi O'zbekiston" massivlari barpo etila boshlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-dekabrda "Yangi O'zbekiston" massivlarini qurish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-32-sonli Farmoni bunga misol bo'la oladi. Bu farmonning asosiy maqsadi sifatida aholining turmush darajasini oshirish maqsadida zamonaviy massivlar tashkil etish va aholini uy-joy bilan ta'minlash, yashash sharoitini yaxshilash, hududlarda zamonaviy shaharsozlik talablari asosida ko'p qavatli uy-joylar, ijtimoiy soha va infratuzilma obyektlari hamda muhandislik kommunikatsiya tarmoqlari qurilishini jadallashtirish, er resurlaridan oqilona foydalanish va aholi punktlarining urbanizatsiya jarayonlarini rivojlantirishdan iborat deb bilaman.

### **Xulosa va takliflar.**

Zamonaviy massivlarda xizmat ko'rsatishni rivojlantirish va samarali boshqarish tashkil etish orqali erishish mumkin. Bundan ko'rinadiki, zamonaviy massivlardagi xizmatlar faoliyati aholi turmush darajasi va sifatini baholash ko'rsatkichlarini aniqlash hamda ularni boshqarish bo'yicha turli xil echimlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni taqazo etadi.

Zamonaviy massivlarda keng qulayliklar yaratilgan xizmat faoliyatini yo'lga qo'yish, xizmatlarning aholi turmush tarzini yaxshilashga olib keluvchanligini ko'paytirish, xizmatlari sifatini oshirishga yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etish bu faoliyatning rivojlantirishning eng asosiy vazifalari hisoblanadi.

Shundan kelib chiqqan holda zamonaviy massivlarda bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini oshirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- xizmatlar faoliyatining aholi turmush darajasini oshirishga ta'sirini chuqur o'rganish;
- aholining xizmatlarga bo'lgan talabi hajmini muvofiqlashtirish va bu borada ko'proq ilmiy tadqiqotlar olib borish;
- zamonaviy massivlarda aholining yashash sharoitlari va standartlarini yanada yuqori darajaga ko'tarish;
- aholining bandlik darajasini oshirish va munosib turmush kechirishi uchun zarur bo'lgan infrastrukturani jadal rivojlantirish.

### **Adabiyotlar/Jumepamyra/Reference:**

Abduraxmonov Q.X. (2009) *Mehnat iqtisodiyoti. Toshkent, "Mehnat" 357- b.*

Farmon, (2021) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-dekabrda "Yangi O'zbekiston" massivlarini qurish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-32-sonli Farmoni.*

*Ismailov N.I. (2023) Zamonaviy massivlar va ularda aholiga ko'rsatiladigan xizmatlar. Me'morchilik va qurilish muammolari (ilmiy texnik jurnali).*

*Ismailov N.I. (2024) Zamonaviy massivlarda xizmat ko'rsatishni boshqarishning aholi turmush darajasiga ta'siri. Arxitektura va qurilish sohasida zamonaviy ilm-fanning innovatsion yutuqlarini tadbiq etish muammolari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi. SamDAQU 07.06.2024 y. 213-216 b.*

*Ismailov N.I. (2024) Zamonaviy massivlarda xizmat ko'rsatish tizimining rivojlanishi. Modern Education and Development elektron jurnali. Vol.4 No.2366-371 b.*

*Muxiddinov X. S. (2009) Hudud aholisi turmush darajasini oshirish va ijtimoiy rivojlanishini modellashtirish. Monografiya. T.: "FAN", 12 b.*